© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

SALJUQIYLAR DAVRI MADRASALARI VA ULARNING ME'MORIY O'ZIGA XOSLIGI

Muallif: **Xidirova Dilnoza Narbayevna**
Samarqand shahar 12-maktab tarix fani o'qituvchisi
dilnozanarbayenva22@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22944082

Annotatsiya. Ushbu tezisda Saljuqiylar davri, xususan, Onaduli saljuqiylari me'morchiligida muhim o'rin tutgan masjid va madrasalarning strukturaviy xususiyatlari, ularning g'oyaviy-konseptual asoslari hamda o'ziga xos me'moriy yechimlari tahlil qilingan. Mintaqaning iqlimiy va geografik sharoitlariga moslashgan holda barpo etilgan an'anaviy ochiq hovlili hamda ilk bor Onadulida shakllangan yopiq gumbazli ta'lim maskanlarining arxitekturaviy tafovutlari qiyosiy yoritilgan.

Kalit so'zlar: Onaduli, Saljuqiylar me'morchiligi, Nizomiya, Alaaddin masjidi, Inje Minareli, Karatay, dorul-hadis, muqarnas, portal, yopiq madrasa.

Dolzarbligi. XI–XII asrlarda Buyuk Saljuqiylar imperiyasining vujudga kelishi va hududiy kengayishi butun Yaqin va O'rta Sharq madaniy hayotida yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Saljuqiylarning Onaduliga kirib kelishi natijasida turkiy ko'chmanchi an'analar, islomiy qadriyatlar va mahalliy sivilizatsiyalar uyg'unlashuvi yuz berdi. Ushbu davr diniy va ta'limiy yodgorliklarini o'rganish o'rta asrlar musulmon Sharqining me'moriy konsepsiyasini hamda ma'naviy-ma'rifiy tizimi rivojini tushunishda g'oyat muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy-arxitekturaviy tahlil, manbashunoslik hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xulosalar Saljuqiylar madaniy merosi bo'yicha saqlanib qolgan yodgorliklar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslandi.

Natijalar va tahlil. Saljuqiylar davlatining qudrat cho'qqisiga chiqishi bevosita mashhur vazir Nizamulmulkning ma'rifiy va ma'muriy islohotlari bilan bog'liqdir [1]. Uning tashabbusi bilan davlat homiyligidagi markazlashgan
"Nizomiya" madrasalari tarmog'iga asos solindi. 1065-1067-yillarda Bag'dodda mashhur olim Abu Ishoq ash-Sheroziy uchun qurilgan madrasa davlat arboblari va huquqshunoslarni tayyorlash, sunniy mazhabini mustahkamlash hamda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashning markaziga aylandi [2]. Vazir bu kabi ta'lim dargohlarini Nishopur, Balx, Hirot, Isfahon, Basra va Marvda ham bunyod ettirdi [3]. Keyinchalik bu ma'rifiy an'ana Onaduliga ko'chib, mintaqaviy o'ziga xos me'moriy shakllarga ega bo'ldi.

XII-XIII asrlarda Saljuqiylar me'morchiligining yetakchi ramzi bo'lgan Konyadagi Alaaddin masjidi sharqiy va g'arbiy qanotlaridagi ikki xil an'ananing sintezi bilan ajralib turadi. Sharqiy qanoti an'anaviy arab gipostil ya'ni ustunli zal shaklida bo'lsa, g'arbiy qanoti eroncha markaziy o'q - mehrob, maqsura gumbazi va peshtoq uslubida shakllantirilgan [4]. Shuningdek, majmua hovlisida sulola sultonlari dafn etilgan ko'pburchakli "kumbad" (maqbaralar) joylashgan.

Madrasalarning strukturaviy turlari. Onaduli Saljuqiylari iqlim sharoitidan kelib chiqib madrasalarni asosan ikki guruhga ajratib qurdilar:

-Ochiq hovlili madrasalar: Sivasdagi Go'k madrasa, Arzirumdagi Chifte Minareli hamda Qayseridagi Gavhar Nasiba (shifoxona va tibbiyot madrasasi) majmualari ikki qavatli tuzilishi, keng hovlisi va monumental tosh portallari bilan an'anaviy uslubni namoyish etadi [5].

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

-Yopiq gumbazli madrasalar: Qattiq qish iqlimiga moslashgan noyob turkiy arxitektura ixtirosidir. Konyadagi Karatay madrasasi (1251) va Inje Minareli dorul-hadisi (1260-1265) buning yorqin namunasidir. Inje Minareli portalida me'morning nomi muhrlangan ("Amal-i Koluk bin Abdulloh") bo'lib, u islom san'atidagi noyob hollardan biridir. Uning vestibyuli orqasidagi markaziy zal yelpig'ichsimon ustunlarga tiralgan ulkan gumbaz bilan yopilgan bo'lib, markazida yorug'lik tushuvchi tuynuk (okulus) joylashgan [6]. Firuza va to'q ko'k silliq koshinlar esa bino ichki qismiga o'ziga xos estetik ko'rk bag'ishlagan.

Xulosa. Buyuk Saljuqiylar davrida asos solingan tizimli ta'lim modeli Onaduli zaminida yuksak arxitekturaviy mukammallikka erishdi. Saljuqiy me'morlari Markaziy Osiyo gumbazli qurilish san'atini, arab gipostil an'analarini va Onadulining tosh yo'nish mahoratini sintez qilib, dunyo arxitekturasida o'xshashi bo'lmagan yopiq madrasalar va ko'p ustunli masjidlar maktabini yaratdilar. Bu esa o'rta asrlar Sharq sivilizatsiyasining taraqqiyot darajasini yaqqol ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nizamulmulk. Siyosatnoma (Siyar al-muluk). Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi Sh. Vohidov. – Toshkent: Adolat, 1997. - 240 b.
2. Köymen, M. A. Büyük Selçuklu İmparatorluğu Tarihi. Cilt II: İkinci İmparatorluk Devri. - Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1991. - S. 370-378.
3. Aslanapa, Oktay. Türk Sanatı (Başlangıcından Cumhuriyete Kadar). - İstanbul: Remzi Kitabevi, 1984. -448 s.
4. Konyalı, İbrahim Hakkı. Âbideleri ve Kitâbeleri ile Konya Tarihi. - Konya: Yeni Kitap Basımevi, 1964. -1120 s.
5. Kuban, Doğan. Selçuklu Çağında Anadolu Sanatı. - İstanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2002. -448 s.
6. Öney, Gönül. Anadolu Selçuklu Mimari Süslemesi ve El Sanatları. - Ankara: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 1992. - 180 s.
7. Sözen, Metin. Anadolu Medreseleri: Selçuklu ve Beylikler Devri. 2 Cilt. – İstanbul: İTÜ Mimarlık Fakültesi, 1970. -312 s.
8. Zaporojets, V. M. Seldjuki. - Moskva: Voenizdat, 2011. - 294 s.